

TOIROVA Zilola Zafar qizi,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: ERNAZAROV Odiljon,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik va jahon dinlarini
qiyosiy o'rganish UNESCO kafedrasi mudiri,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

QUDDUS PRAVOSLAV PATRIARXLIGINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV TIZIMI

ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ И СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ИЕРУСАЛИМСКОГО ПРАВОСЛАВНОГО ПАТРИАРХАТА

HISTORICAL FORMATION AND ADMINISTRATIVE STRUCTURE OF THE JERUSALEM GREEK ORTHODOX PATRIARCHATE

Annotatsiya. Ushbu maqolada Quddus Rum Pravoslav Patriarxligining vujudga kelishi, tarixiy shakllanishi hamda turli siyosiy hokimiyatlar davridagi faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, cherkovining patriarxlik maqomiga ko'tarilishi, Xalkidon Soborining bu jarayondagi ahamiyati hamda Vizantiya davrida Quddusning xristian ziyorat markaziga aylanishi masalalari yoritiladi. Vizantiya hukmronligi, arab xalifaligi, salib yurishlari, mamluklar va Usmoniylar hukmronligi ostida bo'lgan davrida patriarxlikning huquqiy holati, muqaddas joylar bilan bog'liq vakolatlari va diniy mavqei yoritiladi.

Tayanch so'zlar: Quddus provaslav cherkovi, patriarx, Xalkidon Sobori, Kamame cherkovi (Muqaddas qabr cherkovi), omonnoma, Sofroniy.

Аннотация. В данной статье анализируются возникновение, историческое становление и деятельность Иерусалимского Греко-Православного Патриархата в различные периоды политической власти. В частности, рассматриваются процесс возведения Церкви в ранг патриархата, значение Халкидонского собора в этом процессе, а также превращение Иерусалима в важный центр

христианского паломничества в византийский период. Также освещаются правовой статус, религиозные полномочия и роль Патриархата в отношении святых мест в периоды византийского правления, арабского халифата, крестовых походов, мамлюков и Османской империи.

Ключевые слова: Иерусалимская православная церковь, патриарх, Халкидонский собор, храм Камаме (Храм Гроба Господня), гарантийная грамота (аман), Софроний.

Annotation. This article analyzes the emergence, historical formation, and activities of the Greek Orthodox Patriarchate of Jerusalem under various political authorities. In particular, it examines the elevation of the Church to patriarchal status, the significance of the Council of Chalcedon in this process, and the transformation of Jerusalem into a major Christian pilgrimage center during the Byzantine period. The study also explores the legal status, religious authority, and role concerning holy sites of the Patriarchate under Byzantine rule, the Arab Caliphate, the Crusades, the Mamluks, and the Ottoman Empire.

Key words: Jerusalem Orthodox Church, patriarch, Council of Chalcedon, Kamame Church (Church of the Holy Sepulchre), concept of Aman, Sophronius.

KIRISH

Quddus Pravoslav Patriarxligi xristianlikdagi besh qadimiy patriarxlik (Rim, Konstantinopol, Iskandariya, Antioxiya, Quddus)dan biri bo'lib, uning ildizlari havoriylar davriga borib taqaladi. Milodiy 55-yilda Avliyo Yoqub (Iakovas) tomonidan Quddus Cherkovi tashkil etilishi bilan patriarxiyaning asosi qo'yilgan. Quddus yepiskopi ma'muriy jihatdan Falastin Kesariyasi (lot. Caesarea Maritima yoki Caesarea Palestina) Mitropolitiga bo'ysungan bo'lib, Falastin Kayseriyasi Mitropolitligi esa Antioxiya Cherkoviga qarashli edi [7 : 136]. Quddus Cherkovi 422-yilda boshqaruv jihatidan Rimdan ajralib, Istanbul Rum Patriarxligiga bo'ysundirilgan, oradan ko'p o'tmay esa Istanbuldan ham ajralib, to'liq mustaqil maqomga ega bo'lgan. Mustaqil bo'lgan Quddus Cherkovi Qadimgi Quddus hududida hech qanday siyosiy ta'sirga ega yirik cherkov bo'lmagan. Biroq Iso Masih ta'limotlari yoyilgan, u azob chekkan va osmonga ko'tarilgan muqaddas maskan sifatida e'tirof etilishi, ayniqsa imperator Konstantin tomonidan Iso Masihning xochga mixlanishi, dafn etilishi va tirilishi bilan bog'liq joy ustida bunyod etilgan Kamame

(Muqaddas Qabr) cherkovi Quddusni umumjahon xristianlar miqyosida diniy uygʻonish va ziyorat markaziga aylantirgan [1].

ASOSIY QISM

II asr boshlarida Iso Masihning tabiatiga doir vujudga kelgan xristologik bahs-munozaralar natijasida 451-yilda chaqirilgan Xalkidon Sobori monofizit taʼlimot tarafdorlarini laʼnatladi. Sharqiy Rim imperiyasi Quddusdagi muqaddas joylarga aloqadorligini asos qilib koʻrsatib, Sharq Cherkovining mahalliy ierarxiyasida Quddus Yepiskoposligini mustaqil patriarxiya maqomiga koʻtardi. Shu tariqa Quddus Rum Patriarxligi tashkil etilgan va birinchi patriarx etib Yuvenaliy (patriarxlik davri: 451-458) tayinlangan. Aslida Yuvenaliy 431-yilda boʻlib oʻtgan Efes Soborida Quddusni patriarxiya maqomiga koʻtarish uchun tinimsiz harakat qilgan edi. Sobordan keyin shaxsan imperator Feodosiy II (408–450) bilan uchrashgan boʻlsa-da, bu maqsadini amalga oshira olmagan.

Patriarx Yuvenaliydan Patriarx Sofroniy (634–638) davrigacha Quddus Rum Patriarxiyasida jami 13 nafar patriarx faoliyat yuritgan. Biroq ushbu 13 patriarx faoliyat koʻrsatgan davrga oid patriarxlik haqida juda kam maʼlumotlar saqlanib qolingan. Maʼlum boʻlgan yagona holat shuki, 614-yilda Quddus shahrini eronliklar bosib olganida, patriarxiya markazi sifatida foydalanilgan Kamame cherkovi (Muqaddas Qabr cherkovi) yoqib yuborilgan. Vayron qilingan mazkur cherkov Patriarx Modest (632–634) rahbarligida qaytadan barpo etilgan [5 : 418].

Quddus shahri qariyb yetti asr davomida Rim hukmronligi ostida (mil. avv. 63 – mil. 638) boʻlib, 638-yilda Ummaviylar xalifaligi tarkibiga kirgan. Musulmonlar Quddusni fath etgach, nafaqat Quddus Rum Patriarxiyasi, balki xristianlik uchun muhim boʻlgan muqaddas maskanlar ustidan ham Vizantiya boshqaruvi tugab, musulmonlar hukmronligi boshlangan. 638-yil fevral oyida Quddusga kirib kelgan xalifa Umar (r.a)ni qarshi olganlar orasida Quddus Rum Patriarxi Sofroniy ham bor edi. Patriarx Sofroniy shahar musulmonlar qoʻliga oʻtishiga toʻsqinlik qilishga uringan boʻlsa-da, bunga muvaffaq boʻla olmagan. Shunga qaramay, Hazrati Umar shahar xristianlarining jonlariga zarar yetkazilmasligi, ibodat erkinligi taʼminlanishi, cherkov va ibodatxonalar himoya qilinishi haqida bayon

etilgan mashhur omonnomasini Patriarx Sofroniyga topshirgan. Ushbu omonnoma bilan Islom tarixida patriarxlikning ilk rasmiy huquqiy maqomi belgilangan. Unga koʻra, Quddus mintaqasidagi hamda Tur-i Zaytundagi ruhoniylar patriarxlikka boʻysunishi, xristianlar esa jizya toʻlash sharti bilan himoya ostiga olinishi belgilangan. Shuningdek, patriarxiya boshligʻi patriarx ham jizya va shunga oʻxshash soliqlardan ozod etilgan.

638-yilda Patriarx Sofroniyning vafotidan soʻng, patriarxlik maqomi maʼlum muddat boʻsh qolgan. Ushbu boʻshliq davrida patriarxiya ishlarini Heshbon yepiskopi Feodor olib borgan va 680–681-yillarda boʻlib oʻtgan Konstantinopol III Sobori (Trullanum Sobori)da ishtirok etgan. Biroq Feodor haqiqiy maʼnoda patriarx emas, balki yepiskop edi. Nihoyat, Sofroniydan keyin Quddus Patriarxiyasiga haqiqiy patriarx sifatida Anastasiy II (?–706) tayinlangan [3 : 675-712].

Ushbu maʼlumotlardan koʻrinadiki, musulmonlar Quddus ustidan hokimiyatni qoʻlga olganidan keyin ham, Quddus Rum Patriarxligi bilan Istanbul Rum Patriarxligi oʻrtasidagi aloqalar uzilmagan, hamda Quddusdan cherkov soborlariga vakillar yuborilgan. 692-yilda oʻtkazilgan Konstantinopol Soborida ham, Patriarx Ioannning vakili sifatida Anastasiy ishtirok etgan.

Islom hukmronligi davrida Quddusda patriarxiyaga va xristianlarga nisbatan bagʻrikeng munosabatda boʻlib, ularga erkin ravishda ibodat qilish imkoniyati berilgan. Darhaqiqat, Quddus Rum Patriarxi Feodosiy (862–878) Konstantiniya Patriarxi Ignatiyga yozgan maktubida, musulmon amaldorlari adolatli ekanini, ularga hech qanday yomonlik qilinmaganini va zoʻravonlikka uchramaganliklarini bayon etadi.

Biroq Fotimiylar davrida xristianlar bilan ayrim ziddiyatlar vujudga kelgan. Ingliz tarixchisi, Vizantiya va oʻrta asrlar boʻyicha mutaxassis olim Stiven Ransimanning taʼkidlashicha, buning sababi ularning iqtisodiy jihatdan juda yaxshi ahvolda boʻlishlari, oʻzini ustun qoʻyishga asoslangan harakatlari va oʻzlari haqida chiqarilgan qonunlarga boʻysunishni istamaganliklari edi. Masalan, Quddus Patriarxi Ioann (964–966) imperator Nikiforni Falastin ustiga hujum qilishga tashviq etgan. Ammo bunday hiyonat musulmonlar bagʻrikenglik doirasidan chiqib ketgan va patriarx hibsga olinib oʻldirilgan. Shuningdek, Fotimiylar xalifasi Hokim (996–1020) 1009-yil 28-sentabrda, Pasxa bayrami kuni, patriarxiya uchun nihoyatda

muhim bo'lgan Kamame (Muqaddas Qabr) cherkovini vayron qilish haqida buyruq bergan. Ushbu vayronagarchilik bilan birga cherkovdagi diniy ahamiyatga ega buyumlar va jihozlar talon-taroj qilingan. Bu voqea Sharqda ham, G'arbda ham juda katta shov-shuvlar keltirib chiqargan. Biroq Hokimning xalifaligi oxiriga kelib, xristianlarga nisbatan qo'llanilgan bu siyosatdan voz kechilgan va uning vorislari sulola tugaguniga qadar ilgari mavjud bo'lgan keng bag'rikenglik an'anasini qayta tiklaganlar. Darhaqiqat, 1036-yilda xalifa Mustansir Billah, Kamame cherkovini qayta qurish uchun Sharqiy Rim imperatori Monomax IX ga ruxsat bergan.

1099-yilda Godfri de Buyon va Raymond de Tuluz boshchiligidagi salibchilar Quddusni egallab, Kamame cherkovida o'z g'alabalarini nishonlaganlar. Salibchilar dastlab Sharqiy xristianlarning ibodat tartiblarini bekor qilib, lotinlardan tashqari barcha xristian ruhoniylarini afroz deb e'lon qilgan. Shuningdek, ularning muqaddas joylarga kirishi va ibodat qilishlarini ham taqiqlaganlar. Quddusda Lotin qirolligi (1099-1291) tashkil etilgach, Quddus Rum Patriarxi surgun qilingan va uning o'rniga Arnul yoki Arnulf (1112-1118) ismli ruhoniylarining birinchi Lotin Patriarxi etib tayinlangan. Natijada ko'plab pravoslav xristianlari katolik bo'lishga majbur bo'lganlar. Rum Patriarxining surgun qilinishi bilan Quddus Rum Patriarxiyasining surgun davri boshlangan. Ushbu yillar davomida patriarx tayinlanishi davom etgan, ammo ular Konstantiniyada istiqomat qilganlar.

Quddus Rum Patriarxiyasining surgunlik yillari Salohiddin Ayyubiy Quddusdagi salibchilar hukmronligiga barham berguniga qadar davom etdi. Ayyubiylar Hittin jangida lotin qo'shinlarini tor-mor etishlari bilan Quddus va Falastin eshiklari ochiladi. Natijada 1187-yil 2-oktabrda shahar fath etilgan. Quddusni qo'lga kiritgan Salohiddinning ilk harakati xristianlar uchun dunyodagi eng muqaddas maskan hisoblangan va patriarxiyaning sobiq markazi bo'lgan Kamame cherkovini uch kun muddatga yopish buyrug'i bo'ldi. Bu qaror patriarxiya va xristianlarning taqdiri muhokama qilinadigan uch kunlik muddatni anglatardi. Ushbu uch kun davomida Salohiddin va uning maslahatchilari xristianlar hamda Kamame cherkovining holatini muhokama qildilar. Maslahatchilarning ayrimlari Quddusga haj va ziyorat maqsadida keladigan xristianlarni

qaytarish uchun cherkovni vayron qilishni taklif etdilar. Biroq Salohiddin Umar (r.a) yo'lidan borib, cherkovni buzish haqidagi takliflarga quloq solmadi va cherkovga zarar yetkazishni qat'iy taqiqladi [8 : 249-256]. Shuningdek, Abul Farajning qayd etishicha, Salohiddin dastlab cherkovda to'rt frank ruhoniysini qoldirib, cherkov boshqaruvini ularga topshirgan, biroq oradan ko'p o'tmay cherkov boshqaruvini Rum Patriarxiyasiga qaytarib bergan.

Salohiddin Ayyubiy Umar (r.a)ning Sofroniyga bergan omonnomasiga o'xshash bir kafolatni o'sha davrdagi Rum patriarxiga ham bergan. Olib borgan tadqiqotlar natijasida Rum patriarxiga berilgan ushbu omonnomaning bir nusxasi Bosh vazirlik Usmonli arxivlarida aniqlangan. Kafolat matnida qaysi Rum patriarxiga berilgani aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, taxminlarga ko'ra patriarxiyaning surgun yillaridan so'ng tayinlangan birinchi patriarx 1190-1191 yillarda faoliyat yuritgan Dosifeyga yoki o'sha yillarda patriarxlik qilgan Markusga berilgan. Darhaqiqat, Patriarx Markusdan so'ng 1223-yilgacha patriarxiyaga yangi patriarx tayinlanmagan [2 : 127- 159].

Salohiddin Ayyubiy Quddus Patriarxiga bergan farmoniga ko'ra, Kamame cherkovi Rum patriarxining huzurida ochiladi va ziyorat uchun kelgan frank rohiblar yonida maxsus tayinlangan shaxs bo'lmaguncha cherkovga kirishlariga ruxsat berilmaydi. Quddusda xristianlik uchun eng muqaddas ibodat maskanlari hisoblangan Sitti Maryam maqbarasi, Baytlahm cherkovi va Kamame cherkovida Rum jamoasining homiysi va qo'riqchisi Quddus Rum Patriarxiyasi hisoblangan. Quddusda Ayyubiylar hukmronligidan keyin boshlangan Mamluklar davrida Patriarxiya muqaddas joylardagi o'z huquqlarini saqlab qolish uchun lotinlar (katoliklar) bilan kurash olib borgan. Salib yurishlari yakunlangach, lotinlar Quddus shahrini tark etgan edilar. Mamluklar hukmronligi davrida Quddusda Rum, Arman, Suryoniy, Qibtiy, Habash, Gruzin va Serb xristian jamoalari mavjud edi. Sulton Baybars II davrida (1309-1310) chiqarilgan 1309-yilgi farmonida fransiskanlardan boshqa hech bir frank rohibi na Sion tog'ida, na Kamame va Baytlahm cherkovlarida istiqomat qila olmasligi belgilab qo'yilgan edi. G'arb xristian dunyosi tabiiy ravishda bunday chetlashtirishni qabul qilmay, Quddusga yana qaytish uchun harakatlarni boshladi. Nihoyat, 1333-yilda ular Quddusga qaytishga muvaffaq bo'ldilar.

Quddusga qaytib kelgan lotinlar qisqa vaqt ichida o'z mavqeini rumlarning mavqeiga tenglashtirdilar va tez orada o'z ta'sir doiralarini kengaytira boshladilar. 1341-yilda lotinlar Kamame cherkoviga qayta kirishga muvaffaq bo'lishdi. Besh yil o'tib esa ular o'z ta'sir doiralarini Baytlahm cherkovi va Getsimaniyaga qadar kengaytirdilar. Shuningdek, 1427-yil 24-noyabrda Sulton Barsbay (1422–1438) tomonidan hamda 1472-yil 17-aprelda Sulton Qaytbay (1468–1496) tomonidan chiqarilgan farmonlarda Kamame cherkovini ziyorat qilish uchun olinadigan bir dirham to'lovdan franklarning ozod etilgani qayd etilgan. Bu holatdan ko'rinib turibdiki, Mamluklar davrida Quddus Rum Patriarxiyasi Salohiddin Ayyubiy davrida qo'lga kiritilgan imtiyozlarni hamda, o'z tasarrufidagi Muqaddas joylarni asta-sekin lotinlarga boy berib borgan.

Sulton Salim Marj Dabiqdagi jangda mamluklar ustidan qozongan g'alabasidan so'ng, 1516-yil dekabr oyida bir qator davlat arboblari bilan birga Quddusga kelgan [2 : 127- 159]. Shu tariqa Quddus fath etilib, Quddus Rum Patriarxiyasi Usmonli hukmronligi ostiga o'tgan. Biroq Quddus hali fath etilmasidan oldin Quddus Rum Patriarxi Afanasiy bir guruh rohiblar bilan Istanbulga kelib, Hazrati Umar tomonidan ularga berilgan farmonni Fotih Sulton Mehmedga ko'rsatib, avvalgi imtiyozlarini yangilab berishni so'ragan. Fotih Sulton Mehmed ham Muhammad (s.a.v) tomonlaridan ehson va in'om qilingan, muhrlari bilan tasdiqlangan hujjatga, shuningdek Hazrati Umar tomonidan kufiy xatida yozilgan farmonga hamda, avvalgi sultonlar tomonidan berilgan in'omlarga doir farmonlarga tayangan holda ularning imtiyozlarini qayta tasdiqlagan. Patriarxiyaning maqomi belgilangan 1458-yilgi ushbu farmonda Quddusdagi rumlarga tegishli muqaddas joylar birma-bir sanab o'tilib, patriarxiyaga bir qator imtiyozlar berilgan. Unga ko'ra, patriarxiya va unga qarashli xizmatkorlar boj, xiroj va boshqa soliqlardan ozod etilgan, avvalgi musulmon sultonlar, Hazrati Umar hamda Fotihning o'zi tomonidan berilgan imtiyozlar undan keyingi davrlarda ham amal qilishi ta'kidlangan [3 : 675-712].

Fotih Sulton Mehmed Istanbulni fath etgan paytda Patriarx Grigoryning Italiyaga qochib ketgani sababli Rum Patriarxiyasi boshida hech kim yo'q edi. Sharq va G'arb cherkovlarini birlashtirish masalasidagi ixtiloflar sababli bu lavozim ancha vaqt bo'sh turgan. Sulton Mehmed

fathdan so'ng Pravoslav cherkovini alohida bir millat sifatida tashkil etib, Georgios Skolarisni Gennadius unvoni bilan Rum millatining boshlig'i, ya'ni Istanbul Rum Patriarxiyasining rahbari etib tayinladi. Saylovdan so'ng Gennadiosni ovqatga taklif qilgan Fotih, qasamyod qilish sharti bilan unga ruhoniy hokimiyat ramzi bo'lgan kumush patriarx xassasi, ming tilla, bir ot va xil'at berib, uni saroy darvozasigacha kuzatib qo'ydi. Shuningdek, Erjan Misr, Suriya, Falastin, Kipr va Rossiya pravoslavlarining boshqaruvi Istanbul Rum Patriarxiyasiga berilganini qayd etadi. Aslida, haqiqiy ma'noda Yavuz Sulton Salimning Misr va Suriyani Usmonli hukmronligiga qo'shganidan keyin Pravoslav cherkovining uch yirik patriarxiyasi – Iskandariya, Antioxiya va Quddus patriarxialari Usmonli hukmronligi ostiga kirgan. Usmonlilarning Istanbul markazlashtirish siyosati natijasida Sharq patriarxlariga Istanbul Rum Patriarxi tasarrufi ostida muayyan maqom berilgan. Iskandariya, Antioxiya va Quddus patriarxlarining har biri o'z vakolat hududidagi ishlar ustidan to'liq vakolatlarga ega bo'lganlar.

Sulton Salim 1516-yil dekabr oyida Quddusga kelganida, uni kutib olganlar orasida Quddus Rum Patriarxi Dorofey ham bor edi. U 1506-1537-yillar oralig'ida patriarxlik vazifasini bajargan. Dorofey Vizantiyaning Attaliya, hozirgi Antaliya shahridan bo'lganligi uchun ismi ham arabcha manbalarda, ham Yavuz tomonidan unga berilgan farmonda "Attalia" (tarjimasi: "Божий дар", "Xudoning in'omi") shaklida qayd etilgan. Yavuz Sulton Salim Dorofeyga bergan farmonida Rum jamoasi tasarrufidagi Muqaddas joylar birma-bir sanab o'tilgan hamda Fotih Sulton Mehmed tomonidan patriarxiyaga berilgan ayrim vakolat va imtiyozlar qayta tasdiqlangan. Mazkur farmon Sulton Sulaymon Qonuniy davrida ham patriarx almashgani sababli aynan yangidan berilgan bo'lib, u yangi patriarx Germanosga (1537–1579) topshirilgan [6 : 62]. Sulaymonning davrida yahudiy va xristian jamoalarining ibodat joylarini tiklash, maktablar ochish, diniy marosimlarni o'tkazish masalalarida keng erkinlik berilgan [4 : 13]. Masalan, Sulaymon Qonuniy davrida 1540-yil Quddus devorlari qayta tiklangan. Sulton Sulaymon Qonuniydan keyin har bir saltanat almashuvida Quddus Rum Patriarxlariga berilgan huquq va imtiyozlar qayta tasdiqlab kelingan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi-ki, Quddus Pravoslav cherkovi xristianlik

tarixida muhim o‘rin egallagan diniy institutlardan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivoji Quddus shahrining muqaddas maqomi bilan uzviy bog‘liqdir. Patriarxlik havoriylar davridan boshlab Vizantiya, arab xalifaligi, salibchilar, mamluklar va Usmoniylar hukmronligi sharoitida faoliyat yuritib, turli siyosiy va diniy jarayonlarni boshdan kechirgan.

Patriarxlik dastlab havoriylar davrida shakllanib, keyinchalik Vizantiya davrida cherkov ierarxiyasida mustaqil patriarxiya maqomiga ko‘tarilgan. Bu jarayon Quddusning diniy ahamiyatiga asoslangan bo‘lib, patriarxlikning siyosiy kuchdan ko‘ra diniy mavqe orqali o‘z ta‘sirini saqlab kelganini ko‘rsatadi.

Arab xalifaligi davrida Quddus Rum Pravoslav Patriarxligining mavjudligi diniy bag‘rikenglik va huquqiy kafolatlar asosida davom etgan. Xalifa Umar (r.a) tomonidan berilgan omonnoma cherkov tarixida burilish nuqtasi bo‘lib, xristian ruhoniylari va muqaddas maskanlarning himoyasini ta‘minlagan. Ushbu davrda patriarxlik siyosiy hokimiyatdan mustaqil bo‘lmagan holda, ammo diniy faoliyatini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Fotimiylar va salibchilar davrida patriarxlik bilan bog‘liq bir qancha ziddiyatlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, Lotin qirolligi (1099-1291, Kingdom of Jerusalem) davrida Rum Patriarxining surgun qilinishi va lotin patriarxligining joriy etilishi Quddusdagi pravoslav an‘analariga kuchli zarba bo‘lgan. Shunga qaramay, patriarxlik butkul yo‘qolmagan, balki surgun sharoitida ham uzluksiz davom etgan.

Usmoniylar hukmronligi davrida esa Quddus Rum Pravoslav Patriarxligi aniq huquqiy maqomga ega bo‘lgan diniy institut sifatida faoliyat yuritgan. Fotih Sulton Mehmed va keyingi sultonlar tomonidan berilgan omonnomalar patriarxlikning muqaddas joylar ustidagi vakolatlarini mustahkamlab, uning tarixiy huquqlarini tasdiqlagan. Ushbu davrda patriarxlik nafaqat diniy markaz, balki pravoslav jamoaning ijtimoiy-huquqiy vakili sifatida ham shakllangan.

XULOSA

Umuman olganda, Quddus Pravoslav Patriarxligi o‘z tarixida turli siyosiy tuzumlar sharoitida mavjud bo‘lib kelgan, muqaddas joylarni saqlash, pravoslav jamoasini boshqarish hamda

boshqa xristian konfessiyalari bilan murakkab munosabatlar doirasida o‘z mavqeini saqlab qolishga intilgan. Keltirilgan tarixiy jarayonlar cherkovning vaqtinchalik siyosiy ustunliklarga emas, balki diniy-huquqiy asoslari va tarixiy merosga tayangan holda davom etib kelganini yaqqol ko‘rsatadi. Ayniqsa, musulmon hukmdorlar tomonidan berilgan huquqiy omonnomalar patriarxlikning mavjudligini davom ettirishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmet Kirlioğlu. II. Abdülhamit döneminde hristiyan mezhep ve devletlerin Kudüs'teki kutsal yerler üzerindeki mücadelesi. <http://dx.doi.org/10.26450/jshsr.3502>
2. Akın Tercanli. Kudüs surlarında osmanlı izleri: şehir kapıları. Dinbilimleri Akademik Araştırma Dergisi 25/1, 2025. - S. 127- 159.
3. İhsan Satış - Muhammed Ceyhan. Kudüs Rum Patrikhanesi. (2015) BELLETEN, 79(285). – 675-712 s.
4. Inalcık H. Osmanlı İmparatorluğu Klasik Çağ. İstanbul: Remzi Kitabevi, 2003. – 380 s.
5. Macpherson J.R., “The Church of the Resurrection, or of the Holy Sepulchre”, The English Historical Review, VII/27, Temmuz 1892. – 417-436 s.
6. Kudüs'te Hristiyan Mezhep ve Milletlerin İdaresi / Administration of Christian Denominations and Communities in Jerusalem: Kıyame Kilisesi Defterlerinin Karşılaştırmalı Neşri / U. Ünal tahriri ostida. – İstanbul: Seçil Ofset, 2019. – 376 s.
7. Mehmet Çelik. Süryani Kilisesi Tarihi. –İstanbul, 1987. – 295 s.
8. Montefiore. Kudüs Bir Şehrin Biyografisi. 2016. – 615 s.